

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SHUKUROVA MATLUBA XOSHIMOVNA

**MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA “AYOL” KONSEPTI
(O.HOJIYEVA VA E.SIDDIQOVA ASARLARI MISOLIDA)**

10.00.01 - O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Shukurova Matluba Xoshimovna

Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyatida “ayol” konsepti (O.Hojiyeva
va E.Siddiqova asarlari misolida).....3

Shukurova Matluba Xoshimovna

The concept of “woman” in the Uzbek poetry of the independence period
(on the example of the works of O.Khadzhieva and E.Siddikova)23

Шукурова Матлуба Хошимовна

Концепт “женщина” в узбекской поэзии периода независимости
(на примере произведений О.Хаджиевой и
Э.Сиддиковой)43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ47

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SHUKUROVA MATLUBA XOSHIMOVNA

**MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA “AYOL” KONSEPTI
(O.HOJIYEVA VA E.SIDDIQOVA ASARLARI MISOLIDA)**

10.00.01 - O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3068 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universiteti tilshunoslik kafedrasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) O‘zbekiston Milliy universiteti veb-sahifasi www.uzmu.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sayfullayeva Ra’no Raufovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raupova Laylo Rahimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.08.2021.Fil.01.06 raqamli Ilmiy kengashning «___»_____2024-yil soat___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: Toshkent shahri), Farobiy ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-08-62; (99871) 227-10-59; faks: (99871) 246-65-24 e-mail: nauka@nuu.uz. O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbek filologiyasi fakulteti (1-qavat, 112-xona)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Farobiy ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-08-62.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.A.Rahmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.B.Xo‘jamqulova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.f.d., dotsent

A.E.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til tizimini antropotsentrik tamoyillar asosida tekshirish ustuvorlik qilmoqda. Hozirda badiiy matnni konseptual jihatdan tahlil etish, unda namoyon bo'lgan muayyan xalq ma'naviy qadriyatlarini ochib berish, lisoniy birliklarning konseptni voqelantirish, uni aks ettirishdagi o'rnini belgilash muammosiga kognitiv aspektda yondashish tilning mental tabiatini aniqlashga yo'l ochmoqda. Antropotsentrik tilshunoslikning bugungi rivojlanish bosqichida kognitiv yo'nalishlar, til birliklarining o'zaro konseptual aloqasi, uning til sohiblari ongida birlashuvi, xususan, "ayol" konseptini milliy va badiiy tafakkur mezonlari asosida tahlil etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida muayyan konseptlarni ifodalovchi til birliklari, ularning konseptual aloqa kuchi hamda konseptosfera hosil qilishi masalasini aniqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, til egalari ongida kognitiv bilimlar asosida hosil bo'ladigan konseptlar tilda verballashar ekan, bu jarayonda mazkur konseptni ifodalashga asos bo'luvchi lingvistik va ekstralingvistik birliklar ham namoyon bo'ladi. Ushbu kognitiv jarayonda til egalari xotirasida tiklangan tushuncha bilan aloqador konseptual birliklarni alohida olingan konseptlar misolida lingvopoetik jihatdan tahlil etish konseptual tilshunoslik uchun ham, lingvopoetika uchun ham qimmatli nazariy bilimlar bera oladi.

Mustaqillik yillarida badiiy matnni konseptual tahlil etish, unda namoyon bo'ladigan xalqimizning milliy qadriyatlarini ochish, badiiy matnning muayyan konsept doirasidagi imkoniyatlarini aniqlashga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbek tilshunosligida ham bugungi kunda til tizimini zamonaviy tadqiq usullari, antropotsentrik tamoyillar, konseptual asosda tadqiq etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda yurtimizda ayolning o'zni, qadri, nufuzini yuksaltirish muhim masalalardan biriga aylandi. Alohida ta'kidlab o'tilganidek: "Ayolning nafosati va nazokati, vafo va sadoqati, aql-zakovati va fidoyiligi asrlar mobaynida yer yuzida hayot davomiyligi va abadiyligiga asos bo'lib keladi. Shu bois ham, dunyodagi eng buyuk san'at asarlari, qo'shiq va qasidalar, me'moriy obidalar ayollar sha'niga bag'ishlangandir"¹. Shunga ko'ra, o'zbek tilidagi "ayol" konseptining badiiy matnda voqelanishi, konseptual bog'langan birliklarni lingvokognitiv tahlil tamoyillari asosida yoritish ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil

¹Мирзиёев Ш.М. Ҳар қандай давлатнинг адолатли экани унинг хотин-қизларга бўлган ғамхўрлиги билан белгиланади. – Тошкент, 8 март – Sputnik. <https://sputniknews-uz.com/20220308/shavkat-mirziyoev-xotin-qizlarni-8-mart-bilan-tabriklati-23201198.html> 08.03.2022, 10:40

17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

1. Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy tilshunoslikning tilda inson omili masalasini turli rakursda o‘rganishga qaratilgan tadqiq usullari kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, psixolingvistika va lingvopoetika doirasidagi tadqiqotlarda namoyon bo‘lmoqda. Tilshunoslikda V.fon Humbolt nomi bilan boshlangan antropotsentrik yondashuv doirasida konsept, uning nazariy tadqiqiga doir talqinlarga e‘tibor kuchaya boshladi. Bu borada N.D.Arutyunova, Z.D.Popova, Y.S.Kubryakova, I.O.Okunova, F.B.Muxutdinova, V.V.Vasyuk, L.V.Adonina va boshqa ko‘plab olimlarning tadqiqotlari maydonga keldi².

Dunyo tilshunosligidagi yangicha qarashlar negizida o‘zbek tilshunosligida ham konsept va uning nazariy tadqiqiga bag‘ishlangan talqinlar yuzaga keldi. Sh.Safarov, A.Mamatov, M.Hakimov, D.Ashurova, D.Xudayberganova, M.Galiyeva, T.Madriyev, N.Nasrullayeva, N.Umarova, D.Baxronova, Z.Akbarova, A.Yuldashev, M.Rahmatova, Z.Marufova, M.Bahramova va boshqa ko‘plab olimlarning ishlarida mazkur sohaning nazariy asoslari belgilandi, “go‘zallik”, “vaqt”, “ostona”, “ota”, “muhabbat” konseptlari bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi³.

² Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Наука, 1984; Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ языка: Ментальные действия. – М.: Наука, 1993; Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие “концепт” в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 2000; Кубрякова Е.С. Язык и знание (на пути знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира). – М.: Языки славянской культуры, 2004; Мухутдинова Ф.Б. Концепт «женщина» во французском языковом сознании (на материале афористики): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2006; Васюк В.В. Концепт «женщина» в статике и динамике фразеологии английского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2002; Адонина Л.В. Концепт “женщина” в русском языковом сознании: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж: 2007; Окунева И.О. Концепт «красота» в русском и английском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2009.

³ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012; Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013; Ашурова Д.У. Гендерные факторы в стилистике // Замоновий тилшунослик ва хорижий тиллар ўқитишнинг долзарб масалари. Илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2008. – С.337–342; Худайберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013; Галиева М.Р. Вербализация концептосферы word/ сўз/слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2010; Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида “аёл” концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012; Насруллаева Н.З. Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларнинг шаклланиши: Филол. фанл. д-ри (DSc) дисс.... автореф. – Тошкент, 2018; Мадриев Т. Инглиз ва ўзбек тилларида инсон туйғулари ифодаланишининг концептуал

A.T.Gryaznovaning ta'kidlashicha, lingvopoetikani kognitiv aspektda kuzatish obyekti badiiy konseptdir⁴, bu atamani S.A.Askoldov ilmiy muomalaga kiritgan⁵. Hozirga qadar tilshunosligimizda mazkur yo'nalishda "ayol" konseptining konseptual-verbal ifodalanishi, lingvokognitiv tahlili muammosiga monografik asosda e'tibor qaratilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'rganilayotgan «XXI asr tilshunosligining ustuvor yo'nalishlari» mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar rejasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati orqali o'zbek tilidagi badiiy matnlarda «ayol» konsepti va konseptosferasining voqelanishini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek tilida «ayol» konseptining lingvokognitiv va lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish;

«ayol» konseptining badiiy matnda voqelanishi masalasini yoritish, bu konseptni aktuallashtiruvchi vositalarni ajratish;

O.Hojiyeva va E.Siddiqovanning she'rlari asosida «ayol» konseptini voqelantiruvchi lingvokognitiv va lingvopoetik vositalarni belgilash, ularning konseptual xususiyatlarini ochib berish;

konseptual tajriba materiallari asosida «ayol» konsepti va konseptosferasining assotsiativ maydonini belgilash.

Tadqiqotning obyekti. O.Hojiyeva va E.Siddiqovanning she'riy to'plamlaridagi asarlari tadqiqot obyekti qilib olindi.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilidagi badiiy matnda «ayol» konsepti va konseptosferasini voqelantiruvchi birliklarning lingvopoetik xususiyatlari tashkil etadi.

taхлили: Филол. фанл. д-ри (DSc) дисс.... автореф. – Самарқанд, 2019; Рахматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари: Филол. фанл. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Бухоро, 2019; Бахронова Д.К. Ўзбек ва испан тилларида олам манзарасининг лингвокогнитив категорияланиши: Филол. фанл. д-ри (DSc) дисс. – Тошкент, 2022; Умарова Н.Р. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс.автореф. – Фарғона, 2021; Акбарова З.А. Олам лисоний манзарасининг шаклланишида когнитив ўзига хослик: Филол. фанл. д-ри (DSc) дисс.... автореф. – Фарғона, 2021; Яндашова Т.Р. Ўзбек ва инглиз тилларида “гўзаллик” концептининг ифодаланиши ва лингвопoeтикаси: Филол. фанл. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021; Юлдашев А.Г. Тилда олам ҳақидаги билимлар иккиламчи интерпретациясининг антропоцентрик моҳияти: Филол. фанл. д-ри (DSc) дисс.... автореф. – Тошкент, 2022; Махмудова С.Х. Ўзбек тилида «остона» концептининг лингвомаданий хусусиятлари (Тоҳир Малик ва Саид Аҳмад асарлари мисолида): Филол. фанл. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2022; Джаббаров Ш.Х. “Вақт” концептосферасининг когнитив-метафорик, лингвофалсафий ва лингвомаданий таҳлили (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида) : Филол. фанл. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Термиз, 2022; Маруфова З.Н. Мумтоз бадий матнларда “гўзаллик” концептининг вербаллашуви: Филол. фанл. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2022; Анорқулова О.Н. Ўзбек тилида “ота” концептининг лисоний-когнитив талқини: Филол. фанл. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2023; Bahramova M.M. “Ayol” konseptosferasining verbalizatorlari va kognitiv tahlili: Filol. fanl. bo‘y. fals. dokt. ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023 va boshq.

⁴ Грязнова А.Т. Лингвопoeтический анализ художественного текста: подходы и направления. – М., 2018.

⁵ Аскольдов С.А. Концепт и слово. // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология / Под общ. ред. В.П. Нерознака. – М.: Academia, 1997.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tasnifiy, tavsifiy, lingvokognitiv, lingvopoetik, funksional-semantik va konseptual tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

lingvopoetikaga kognitiv aspektda yondashuv, badiiy konsept, xususan, «ayol» konseptining inson omili va uning tafakkuri, ruhiyati, hayoti va faoliyati bilan bogʻliq lingvokognitiv xususiyatlari, badiiy matnda bu konseptni voqelantiruvchi assotsiativ-psixolingvistik vositalar, ularning konseptual-verbal ifodalanishi, badiiy talqinlari O.Hojiyeva va E.Siddiqova sheʼrlari asosida dalillangan;

O.Hojiyeva va E.Siddiqova sheʼrlari misolida «ayol» konseptining assotsiativ maydoni belgilanib, uni tashkil etuvchi til birliklarining konseptual mohiyatga ega ekanligi ilmiy asoslangan, *oʻgay ona, opa, singil, qayinsingil, qiz farzand, boʻy yetgan qiz, kelinchak* kabi til birliklarining milliy-madaniy belgilari, ularning badiiy matndagi inson omili, uning tafakkuri, ruhiyati, hayoti va faoliyati bilan bogʻliq konseptual xususiyatlari ochib berilgan;

koʻzmunchoq, boʻxcha, isirgʻa, sumalak, charx, kalava, arqoq, chok, oq sut, goʻdak, chimildiq kabi detallar oʻzbek til tashuvchilari lisoniy ongidagi *ayol* konseptosferasiga oid gender tushunchalar bilan bogʻliq poetik tasvirlar yaratishga xizmat qilganligi olamning lisoniy, konseptual va badiiy tasviri orqali asoslangan;

maqol, matal, turgʻun oʻxshatish va iboralar semantik doirasining har bir nutqiy vaziyat uchun muvofiqlashish xarakteri «ayol» konseptosferasidagi assotsiativ til birliklarining yangi maʼno qirralarini, «ayolning ichki xususiyatlari» mikrokonsepti doirasida psixologik xususiyat, axloqiy fazilat, intellektual qobiliyat mezonlari asosida talqin etilligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mustaqillik davri oʻzbek sheʼriyatida “ayol” konsepti yuzasidan chiqarilgan xulosa va umumlashmalar oʻzbek tilshunosligida kognitiv lingvistika, lingvopoetika sohasi rivojiga munosib hissa boʻlib qoʻshilishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

O.Hojiyeva va E.Siddiqova sheʼrlari misolida oʻzbek tili birliklarini oʻrganishda funksional-semantik, konseptual tahlil metodlarining oʻziga xos jihatlari umumlashtirilgan, uning imkoniyatlari ilmiy-amaliy jihatdan isbotlangan;

«Ayol» konsepti bilan konseptual bogʻlangan birliklar maydoni koʻlamini izohlashda oʻzbek tilining leksik, grammatik sathlari, lingvopoetik imkoniyatlariga tayanilganligi, konseptual tajriba materiallari orqali mazkur konsept doirasida olib borilgan kuzatishlar tadqiq qilinib, ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qoʻyilganligi, chiqarilgan xulosalarning asoslanganligi, muammoning dolzarbligini, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, lisoniy dalillar talqinining nazariy asoslanganligi, himoyaga olib chiqilayotgan holatlarning qiyosiy-nazariy usullar yordamida yechilganligi, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotda erishilgan ilmiy natijalardan kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya,

lingvostilistika, lingvopoetikaga doir izlanishlarda foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida leksikologiya, stilistika, pragmalingvistika, lingvopoetikaga doir ilmiy tadqiqotlar uchun bevosita material bo'lib xizmat qiladi.

Ishda ilgari surilgan g'oyalar, nazariy qarash va amaliy tavsiyalar darsliklar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalari yaratishda hamda ma'ruza matnlari tayyorlashda manba bo'la oladi. Dissertatsiya materiallari «Kognitiv tilshunoslik», «Pragmalingvistika», «Lingvokulturologiya», «Lingvopoetika» fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun ilmiy-amaliy manba vazifasini o'taydi; undan filologiya yo'nalishi uchun tanlov fanlaridan maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda ham samarali foydalanish mumkin; tadqiqot natijalari asosida «ayol» konseptosferasi tadqiqi boshqa konseptlarning o'rganilishida muhim manba bo'lib xizmat qilishi dalillanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O.Hojiyeva va E.Siddiqova asarlari misolida mustaqillik davri o'zbek she'riyatida “ayol” konsepti tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

lingvopoetikaga kognitiv aspektda yondashuv, badiiy konsept, xususan, “ayol” konseptining inson omili va uning tafakkuri, ruhiyati, hayoti va faoliyati bilan bog'liq lingvokognitiv xususiyatlari, badiiy matnda bu konseptni voqelantiruvchi assotsiativ-psixolingvistik vositalar, ularning konseptual-verbal ifodalanishi, badiiy talqinlariga oid xulosalardan 2020-2021-yillarda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan FZ-2019081663 raqamli “O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to'plamini yaratish” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2023-yil 7-iyundagi 1/-04- 60-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy manbalari boyitilib, lug'atlarning mukammallashuviga erishilgan;

O.Hojiyeva va E.Siddiqova she'rlari misolida «ayol» konseptining assotsiativ maydoni belgilanib, uni tashkil etuvchi til birliklarining konseptual mohiyatga ega ekanligi ilmiy asoslanganligi, *o'gay ona, opa, singil, qayinsingil, qiz farzand, bo'y yetgan qiz, kelinchak* kabi til birliklarining milliy-madaniy belgilari, ularning badiiy matndagi inson omili, uning tafakkuri, ruhiyati, hayoti va faoliyati bilan bog'liq konseptual xususiyatlari ochib berilganligiga oid xulosalardan 2022-2023-yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston» teleradiokanalining «Bedorlik», «Ijod zavqi», «Ta'lim va taraqqiyot», «Millat va ma'naviyat» eshittirishlari ssenariylarini yozishda foydalanilgan (O'zMTRKning 2022-yil 2-fevraldagi 04-27-2057-son dalolatnomasi). Natijada ushbu eshittirishlarning mazmuni boyitilgan teleko'rsatuvlarning badiiy matnlar tili, adabiyotini yosh avlodga chuqur singdirishdagi, ularni milliy madaniyatimiz, an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati yanada ortgan;

maqol, matal, turg'un o'xshatish va iboralar semantik doirasining har bir nutqiy vaziyat uchun muvofiqlashish xarakteri “ayol” konseptosferasidagi assotsiativ til birliklarining yangi ma'no qirralarini, “ayolning ichki xususiyatlari” mikrokonsepti doirasida psixologik xususiyat, axloqiy fazilat, intellektual qobiliyat mezonlari asosida talqin etilligiga oid xulosalardan Qo'qon davlat pedagogika

institutida 2022-yilda bajarilgan AL-2103020-raqamli “Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo‘yicha websayt va platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Qo‘qon davlat pedagogika institutining 2023-yil 4-oktabrdagi 1074/04-son ma‘lumotnomasi). Natijada platforma nazariy ma‘lumotlar bilan to‘ldirilgan va yangilangan, she‘riy nutq tahliliga amaliy yordam berishi bilan alohida ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma‘ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 135 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi va ularning ishonchliligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati va ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Konseptual tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslari va metodologiyasi**” deb nomlanib, bu bob uch fasldan iborat. Birinchi fasl “*Antropotsentrik tilshunoslik va tilga kognitiv yondashuv masalasi*” deyilgan.

Uzoq yillar mobaynida shakllangan antropotsentrik paradigma tilni tavsiflashning yangi usullari, til birliklari, kategoriyalari, qoidalarini o‘rganish borasida oldimizga yangi vazifalar qo‘ydi va tadqiq qilishda yangicha yondashuvlar shakllanishi uchun keng yo‘l ochib berdi.

Bir qator tilshunoslar tomonidan kognitiv tilshunoslikning vazifasi sifatida til orqali bilim olish, uni saqlash bilan birga, uni amaliy jarayonga tatbiq etish nazarda tutiladi. Bu jarayon albatta, inson tafakkuri va tasavvuriga bog‘liq tarzda olib boriladi. Xususan, o‘zbek tilshunos olimi G‘.M.Hoshimov “Kognitiv tilshunoslik – inson tomonidan borliq dunyo voqeligining til orqali idrok qilinishi, o‘rganilishi, ya’ni konseptlar orqali uning aks ettirilishi, his qilinishi kabi inson miyasida kechuvchi murakkab konseptual jarayonlar bilan bog‘liq muhim yo‘nalish”⁶ ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

⁶ Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилшunoslik muammolari. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2010. – Б.68.

Konsept tushunchasi insonning borliqni idrok etishi, tasavvur qilishida, uning ongostida mental holda namoyon bo‘luvchi, til sohiblarining dunyoqarashi, ularning milliy-etnik jihatlarini o‘zida aks ettiruvchi birlik sifatida belgilanishi mumkin. Bundan tashqari, konseptning milliy-madaniy xususiyati ham mutaxassislar nazaridan chetda qolmagan bo‘lib, konseptga xos barqarorlik, mukammallik hamda izchillik bevosita tushunchaning xossasini belgilab beradi.

D.Baxronovanning “O‘zbek va ispan tillarida olam manzarasining lingvokognitiv kategoriyalanishi” mavzusidagi doktorlik (DSc) ishida zamonaviy tilshunoslikning lingvokognitiv tahlili masalalari, xalq va mentalitet, inson – til – tafakkur – madaniyat, dunyoqarash, olamning turli manzarasi, konseptual tadqiqotlar, etnoslar tarixida millatning/shaxsning lisoniy ongi, matnning konseptual mag‘zi, madaniy kod hamda til va tafakkur, til va madaniyat, til va inson, til va tarix masalalari bilan bog‘liq xulosalar berilgan⁷.

Har bir xalqning milliy mentaliteti, o‘ziga xos turmush tarzi, dunyoni anglash tamoyillari, o‘zaro munosabatlar tizimi va boshqalarda uning milliy qadriyatlarini shakllanib boradi va bularning in‘ikosi tilda aks etadi. Tilning milliy ong, milliy tafakkur, milliy ruhiyati ifodasi darajasini yoritishda muloqotning lingvomadaniy jihatlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan, “madaniyat mazkur xalq uchungina tegishli hayot va turmush tarzi, shuningdek, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar (qadriyatlar, urf-odatlar, marosimlar, munosabat shakllari va b.) va dunyoni ko‘rish, anglash va tasavvur etish usullaridir”⁸. Shunday ekan, bularning tilda aks etishi ham o‘ziga xos tarzda kechadi.

O‘rganishlarimiz natijasida madaniy til birliklarini quyidagicha tasnifladik: 1) muqobilsiz leksemalar; 2) arxetip va mifologemalar; 3) marosim va e‘tiqodlar, an‘ana va urf-odatlar konseptosferasidagi etnografizmlar; 4) turg‘un birikmalar; 5) etalon, stereotip, ramzlar; 6) ko‘chimlar; 7) tilning stilistik imkoniyatlari; 8) nutqiy etiketlar.

Bobning ikkinchi fasli “*Konseptual tadqiqotlar genezisi va tadrijiy taraqqiyoti*” deyiladi. Antropotsentrik tamoyilning ilmiy munozaraga kirishi ijtimoiy-gumanitar fanlar metodologiyasini butunlay yangi yo‘nalishga solib yubordi. Ana shu yo‘nalishning paydo bo‘lishi asosiy va yetakchi muloqot vositasi bo‘lgan til fenomenini ham ijtimoiy va etnopsixologik hodisa sifatida tadqiq etishga yo‘l ochib berdi. Tilning murakkab tizim ekanligi, til va jamiyat, til va tafakkur, til va madaniyat, til va inson omili munosabati kabi qator masalalarning qo‘yilishi mavjud nazariy manbalarni yangicha mezonlar asosida qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

V.A.Maslovaning fikricha, *antropotsentrik tadqiqotlar* paradigmasida⁹ til birliklarining nutqiy faoliyatdagi voqelanishini shaxs omili bilan uzviylikda o‘rganish tamoyillari shakllandi va rivojlanib bormoqda. Tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelishi kognitiv tilshunoslik,

⁷ Бахронова Д.К. Ўзбек ва испан тилларида олам манзарасининг лингвокогнитив категорияланиши: Филол. фанл. д-ри (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2022.

⁸ Саидова М., Кўзиев У. Лингвокультуроология (Услубий қўлланма). – Наманган, 2017. – Б.39.

⁹ Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. Учебное пособие. – Минск: ТетраСистемс, 2008. – С.8.

psixolingvistika, lingvopragmatika, lingvokulturologiya kabi yo‘nalishlarning rivojiga turtki berdi.

Ma’lumki, antropotsentrik tamoyillar inson omili va uning tafakkuri, ruhiyati, hayoti va faoliyati bilan bog‘liq keng ko‘lamli tadqiqotlarni qamrab oladi. Bu sohada, xususan, D.Xudayberganovning ishlarida antropotsentrik paradigmaning kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokulturologik jihatlari monografik planda tadqiq qilingan.

Olima XXI asrning dastlabki yillaridan o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma asosida bajarilgan tadqiqotlar yuzaga kela boshlaganini ta’kidlar ekan, bu ishlarning, asosan, quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilganligini ko‘rsatib o‘tadi: 1) sotsiolingvistika; 2) kognitiv tilshunoslik; 3) lingvistik pragmatika; 4) psixolingvistika; 5) antropotsentrik paradigmaning umumnazariy masalalari; 6) lingvokulturologiya¹⁰.

Y.Y.Proxorov “Konsept izlanishlarida” (“В поисках концепта”) monografiyasida konsept tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjudligini ta’kidlaydi:

- lingvokognitiv hodisa (Kubryakova, 1996);
- psixolingvistik hodisa (Zalevskaya, 2001);
- abstrakt ilmiy tushuncha (Solomonik, 1995);
- madaniyatning asosiy birligi (Stepanov, 1997);
- lingvomadaniy hodisa (Slisshkin, 2000; Karasik, 2001)¹¹.

Odatda, konsept tadqiqida lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar e’tirof etiladi. Konsept lingvokognitiv hodisa sifatida “ongimizning aqliy yoki ruhiy resurslari birliklari hamda insonning bilim va tajribasini aks ettiruvchi axborot strukturasi ifodalashga xizmat qiluvchi atama; xotiraning operativ mazmuniy birligi, psixik leksika, ong tili konseptual tizimi, inson psixikasida aks etgan til va, umuman, olamning yaxlit tasviridir”¹².

O.A.Kozireva lingvokulturologik tadqiq obyektini kognitiv aspektida o‘rganish yanada samarali natijalar berishiga urg‘u beradi. Ushbu yondashuv asosida tahlil qilinayotgan birliklarni *til*, *madaniyat* va *tafakkurning* o‘zaro ta’siri natijasida ko‘rish ularning milliy o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratib tavsiflash imkonini beradi.

Tilning ijtimoiyligi shundaki, u jamiyat bilan birga hamqadam bo‘lib, tarixiy jarayonlar va ijtimoiy munosabatlar ta’sirida o‘zgarib, rivojlanib boradi, muayyan zamon va makon belgilarini o‘zida aks ettiradi. Shu bilan birga, milliy-madaniy qadriyatlar tizimini o‘zida saqlaydigan bir xazina hisoblanadi. Inson ma’lum bir madaniy ichki tizimga asoslangan milliy-madaniy muhitda ulg‘ayar ekan, shaxs

¹⁰ Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талкини: Филол.фанл. докт. дисс... автореф. – Тошкент, 2015. – Б.19.

¹¹ Прохоров Ю.Е. В поисках концепта. – М.: Флинта, 2011. – С.20.

¹² Кубрякова Е.С. Концепт // Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов [Под общей редакцией Е.С. Кубряковой]. – М.: МГУ, 1997. – С.9-90.

sifatida ana shu madaniyat olamiga kirib, uning etnomadaniy jihatlarini til orqali o‘ziga singdirib boradi.

Madaniyat tarkibiy elementlarining izchilligi, o‘zaro ierarxiyasi mavjudligi va qadriyatlarga bo‘ysunishi uning yaxlit tizim ekanligini ko‘rsatadi. Madaniy meros ajdodlar tomonidan yaratilgan va har bir jamiyatning ijtimoiy-madaniy jarayoniga kiritilgan qadriyatlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Birinchi bobning uchinchi fasli “*Konseptning badiiy nutqda voqelanishi masalasi*” deb nomlangan. XX asrning ikkinchi yarmidan kuchaya boshlagan integratsion bilimlarning antropotsentrik paradigmasiga xos muhim vazifalardan biri falsafa, kognitivistika, psixologiya, madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari kesimida olamning dinamik tasvirini modellashtirishdir. Ushbu nazariyaning asosiy g‘oya tashuvchilari “*olam modeli*”, “*dunyo qiyofasi*”, “*olamning lisoniy tasviri*”, “*lisoniy ong*”, “*lisoniy shaxs*” kabi tushunchalardir. “*Olam tasviri*” tushunchasi birinchi marta L.Vitgenshteyn tomonidan qo‘llanilgan bo‘lsa, L.Vaysgerber uni lingvistik semiotikaga olib kirdi.

Yangicha tamoyillar negizida shakllangan olam tasvirining inson ongidagi in‘ikosi va olamning lisoniy tasviri masalalari tarkibida muayyan diskursiv sotsiolektlarni ajratuvchi “*olamning milliy lisoniy tasviri*”, “*olamning fizik tasviri*”, “*olamning ilmiy tasviri*”, “*olamning badiiy tasviri*”, “*olamning poetik tasviri*” kabi yondosh tushunchalar paydo bo‘ldi. I.V.Rogozina “olam tasviri”ning tarkibiy qismlari sifatida *olamning fizik tasviri, olamning biologik tasviri, olamning etnomadaniy tasviri, olamning diniy tasviri, olamning mifologik tasviri, olamning lisoniy tasviri, olamning konseptual tasviri, olamning badiiy tasviri* kabi ko‘p sonli turlarga ajratilishi “*olamning keng qamrovli tasviri*”ni yaratish istagini bildiradi, deb hisoblaydi.

O‘zbek tilshunosligida ham yaqin yillarga kelib, bu masalaga e‘tibor qaratila boshlandi¹³. Z.Akbarova aytib o‘tganidek, o‘zbek tilidagi manbalar asosida olamning lisoniy manzarasi, lisoniy ong va tafakkur doirasida olamning badiiy tasviri, konsept va uning tarkibi, tilga olamni modellashtirish omili sifatida qarash, olam manzarasida zamon va makon kategoriyalari, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar ongida aks etgan olam manzarasi, yaratuvchi sifatida insonning dunyoni va o‘z-o‘zini anglashi kabilarni o‘zaro aloqadorlikda, uzviylikda atroflicha tadqiq etish milliy-madaniy yuksalish uchun ham muhim hisoblanadi¹⁴.

Ongda mavjud bo‘lgan olamning bevosita kognitiv tasvirini moddiylashtirish, ikkilamchi belgilar tizimi orqali konseptosferani shakllantirish natijasi olamning bilvosita tasviri hisoblanadi. Olam **lisoniy** tasvirining bir turi sifatida olamning **badiiy tasviri** ana shunday bilvosita shakldir. Ijodkor ongida olamning individual manzarasi shakllantiriladi va lisoniy vositalar yordamida badiiy matnda gavdalanadi, pirovardida, bu manzara badiiy asarni idrok qilganda o‘quvchi ongida

¹³ Умурова Г. Лирикада бадий олам талкини // Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804. – Б.578-583

¹⁴ Акбарова З.А. Олам лисоний манзарасининг шаклланишида когнитив ўзига хослик: Филол. фанл. д-ри (DSc) дисс.... автореф. – Фарғона, 2021. – Б.5.

paydo bo‘ladi. Xususan, rus tilshunosligida bu borada qator izlanishlar yuzaga keldi¹⁵.

“Ayol” konseptining semantik mazmunini ochishda she’riyat muhim o‘rin tutadi. Odatda, ming yillar mobaynida erkak ijodkorlar bayt-u g‘azallarining eng sara satrlari *ayol go‘zalligini* madh etib keladi. O‘zbek adabiyotida ayol ijodkorlarning o‘ziga xos o‘rni va ovozi bo‘lib, uzoq yillik tarixiy jarayonni qamrab oladi. Xususan, ularning ijodida “ayol” konseptining olmos qirralari *mehribon ona, sadoqatli yor, latofatli yor, kurashchan ayol* kabi lirik, epik yoki dramatik qahramon sifatida har jihatdan badiiy talqiniga ega.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ayol**” konseptosferasining **paradigmatik uzvlari**” deb nomlanib, ushbu bob ham uch fasldan iborat. Birinchi fasl “*Ayol*” konseptining *lingvokognitiv va lingvopoetik imkoniyatlari*” deyilgan. Til va tafakkur masalasi insoniyatni qadimdan qiziqtirib kelayotgan muammolardan biri bo‘lsa-da, XX asrning oxiriga kelib zamonaviy metodologiya va tamoyillar asosida lingvokognitiv masalalar keng ko‘lamda tadqiq etila boshladi.

O‘zbek tilshunosligida Sh.Safarovning “Kognitiv tilshunoslik” risolasi o‘z vaqtida yozilgan ilmiy tadqiqot sifatida lisoniy faoliyatning kognitiv tahliliga oid masalalari, yangi yo‘nalishning maqsad va vazifalari, tahlil usullari, metodologik tamoyillarini yoritishga bag‘ishlangan¹⁶. Olim kognitiv tahlil obyekti “bilim olish va saqlash, uni amalda qo‘llash va uzatish manbayi va nihoyat, uni shakllantiruvchi vosita bo‘lgan til tizimi” ekanligini ta’kidlaydi.

N.Z.Shayxislamov kognitiv tilshunoslikning ikki asosiy masalasi – konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish o‘zaro bir-birini taqozo etadigan jarayonlar ekanligini ta’kidlaydi: “Inson obyektiv dunyoni anglar ekan, uning ongida bilim strukturalari qoliplashib, konseptlarga aylanadi. Kategoriyalashtirish esa obyektiv borliq bilan bog‘liq mavjud konseptlarni turlashtirish va xillashtirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘xshatish (assotsiatsiya) va farqlash (differensiatsiya) asosida ularni puxta o‘zlashtirish va qat’iy bir tizimga solish demakdir. Bu ikki jarayon doimo birin-ketin amalga oshiriladi, ya’ni oldin konseptuallashtirish kechadi, undan keyin esa kategorizatsiyalashtirish joy oladi.

Matnni lingvokognitiv tahlil qilish, eng avvalo, uning konseptual strukturasi tahlilidir. Matn konsepsiyasini tahlil qilishning dastlabki bosqichida alohida e’tibor ma’lum bir so‘z bilan bog‘langan tuzilmalar matnli leksik-grammatik guruhlarni talab qiladi. Konsept nomi subyektiv “ma’noni zichlashtirish” markazi sifatida o‘z atrofida shaxs tezaurusidagi ayrim “tugun”lar va unga mos ravishda olamning individual tasviri parchasining tiklanishiga imkon beradi.

L.V.Adonina “Ayol” konseptining asosiy farqlovchi belgilari majoziy komponent barcha turdagi **perseptiv** (vizual, ta’m, teginish, hid bilish) obrazlar va ko‘p sonli **kognitiv** (tabiat hodisalarining metaforik obrazlari, zoomorfik,

¹⁵ Мусат Р.П. Художественная картина мира в системе картине мира // Гуманитарные и социальные науки 2015. – № 4. – С.19-28; Варакина Е.Р. Картина мира в лирическом произведении: на материале творчества Г.Иванова и Странника (Д.Шаховского): Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2009; Маслова Ж.Н. Поэтическая картина мира в когнитивном аспекте // Вопросы когнитивной лингвистики. № 3.(016) 2008; Афанасьева Н.А. Символы как семиотические концепты языковой «модели мира» М.Цветаевой: Дисс... канд. филол. наук. – Череповец, 2001.

¹⁶ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.

fitomorfik, antropomorfik) obrazlar bilan ifodalanishi xususida fikr yuritadi. Konseptning axborot komponenti “erkak jinsiga qarama-qarshi”, “ona vazifasini bajaradi”, “ayol jinsiga mansub”, “bir inson”, “farzandli bo‘lish”, “bolalar tug‘adi”, “avlodni davom ettiradi” kabi eng muhim kognitiv xususiyatlar bilan belgilanadi¹⁷.

Konseptning ensiklopedik doirasi yoshi, oilaviy ahvoli, kasbiy mansubligi, ayol faoliyatining o‘ziga xos xususiyati va boshqalar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. “Ayol” konseptining talqin sohasi katta hajmli bo‘lib, umumiy baholash, utilitar, tartibga solish, identifikatsiyalash, ramziy va mifologik maydonlarni o‘z ichiga oladi. Erkaklar kognitiv ongida “ayol” konsepti ko‘proq hajmli, sezilarli yorqinlikka ega bo‘lgan katta periferik zonaga ega bo‘lib, bu tushunchaning erkak lingvistik ongiga kognitiv aloqadorligini ko‘rsatadi. Ayollarning kognitiv ongida “ayol” konsepti kamroq hajmli, ko‘proq konsentratsiyalangan yadro zonasiga va kichikroq periferiyaga ega.

Demak, olamning lisoniy manzarasida yetakchi tushunchalardan biri bo‘lgan “ayol” konseptosferasi til birliklarining psixolingvistik, kognitiv, lingvokulturologik aspektlardagi konseptual tadqiqi uchun boy manba bo‘la oladi.

Ikkinchi bobning navbatdagi fasli “*Oydin Hojiyeva va Enaxon Siddiqova she’rlarida “ayol” konseptosferasi doirasidagi umuminsoniy tushunchalar talqini*” deyiladi.

N.Umarova to‘g‘ri qayd etib o‘tganidek, “Mohiyatan konsept ifodalovchi leksik birliklar miqdori chegaralangan, chunki har qanday voqelikni anglatadigan nom konsept bo‘la olmaydi. Konseptni borliqdagi shunday voqeliklar tashkil qiladiki, bunda ular ma’lum bir madaniyat egalari uchun dolzarb, qimmatli sanaladi hamda uni ifodalovchi ko‘p miqdordagi til birliklari mavjud bo‘ladi, bular jamiyatdagi muhim ijtimoiy voqeliklar, millatning o‘ziga xos bo‘lgan qadriyatlarida o‘z aksini topadi”¹⁸.

Lingvokulturologik yondashuv tadqiqotchilarni mazmuni milliy va madaniy xususiyatlar bilan belgilanadigan madaniy universal konseptlarni o‘rganishga yo‘naltirishi muhim. Ayol konsepti ana shunday milliy (ijtimoiy, etnik, axloqiy) g‘oyalarni o‘zida aks ettiruvchi umuminsoniy ahamiyatga molik konseptlar qatoriga kiradi.

Shoira O.Hojiyeva o‘z qalbida gul kabi o‘sib, kamol topgan she’riyatining hayotiga esh ahamiyatini ayollik, onalik mehri bilan *farzand*, *go‘dak*, *farishtaga* qiyoslaydi va go‘yo aziz bolasidek alqaydi.

Yuragim qonidan ko‘klagan gulim,

Jannat chashmalarin yo‘qlagan gulim,

Oq sut berib boqqan farzandim kabi

Non-u tuzlarimni oqlagan gulim (O.Hojiyeva).

¹⁷ Адонина Л.В. Концепт “женщина” в русском языковом сознании: Автореф. дисс... канд. филол. наук. Воронеж, 2007.

¹⁸ Умарова Н.Р. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2021. – Б.41-42.

Ma'lumki, "ayol" konseptining yetakchi ustuni bo'lgan "ona" tushunchasi dunyoning barcha millat va elatlarida jamiyatning ijtimoiy negizi bo'lgan oilaning tashkil etuvchisi va markaziy figuralaridan biri sifatida qaraladi. Ona tushunchasi jamiyat tarixi va taraqqiyoti bilan har jihatdan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston xalq shoiri Enaxon Siddiqova o'zining nazmiy, nasriy, dramatik va publitsistik asarlari, tarjimalari, zamonaviy ertaklari bilan adabiyotimiz va ma'naviyatimiz xazinasini boyitgan ijodkor ayollardan biridir. E.Siddiqova ijodida "ayol" konseptining o'zak tushunchasi bo'lgan *ona* lisoniy birligi atrofidagi konseptual ifodalarni ko'plab kuzatish mumkin.

Shoiraning "Ona haqida qo'shiq" dostonida muallif o'z onasi timsolida onalikning hayot asosi ekanligiga qaratilgan kechinmalarning obrazli badiiy tasvirini nihoyatda sodda, ravon va jonli ifoda usulida, ekspressiv bo'yoqdor ohanglarda aks ettirgan. Asarda "*ona*" tushunchasi qirralari, bir tomondan, *zahmatkash, sadoqatli, mehribon, fidoyi* inson sifatida, boshqa tomondan, "*o'gay ona*" timsolidagi *bag'ritoshlik, qahri qattqlik, bemehrlik* kabi qusurlar ham kuzatilishini ko'rish mumkin.

"Ona" tushunchasining sof o'zbekona xususiyatlari, ayolning erga sadoqati, ro'zg'or kamini to'ldirish uchun, farzandlar kamoli uchun tinim bilmas, mehnatkash ona qiyofasi "do'ppi tikayotgan ayol" tasviri orqali gavdalantirilishi bejiz emas.

Orzudan ipaklari, Nur berar tilaklari,

Qo'shilib yuraklari, Do'ppi tikarlar onam.

Tebranar ko'hna beshik, Gullaridan nur toshib,

Yaratgan ishq tushib, Do'ppi tikarlar onam.

Supachani to'ldirib, G'ussalarni o'ldirib,

Bo'lmaganni bo'ldirib Do'ppi tikarlar onam (E.Siddiqova, Ona haqida qo'shiq).

Do'ppi, ipak, beshik, supacha kabi leksemalar hamda *bo'lmaganni bo'ldirib* iborasi o'zbek til tashuvchilari ongida shakllangan ayol konseptosferasidagi ona qiyofasining tasavvurlarini uyg'unlashtirishga xizmat qilgan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli "*Oydin Hojiyeva va Enaxon Siddiqova she'rlarida milliy-madaniy konseptosferani ifodalovchi vositalar*" deyiladi.

O'zbek milliy madaniyatidagi "ayol" konseptining nominativ sohasida quyidagi mavzu guruhlari ajralib turadi:

1. Ayollik tabiati. Insoniy xislatlar insonning shaxsiyatini shakllantiradigan ustunlardir. Ayollik – bu ayolning xatti-harakatlari va fazilatlarida namoyon bo'ladi. Ayollik fazilatlarini quyidagicha belgilash mumkin: noziklik (ham jismonan, ham ma'nan), muloyimlik, xushmuomalalilik, bag'rikenglik, moslashuvchanlik, sodiqlik, yumshoqlik, xotirjamlik, go'zallik, jozibadorlik, kurashuvchanlik, sabr-toqatlilik va boshqalar.

2. Onalik. O'zbek mentalitetida onalik yuksak qadrlanadi. Ota-ona, ayniqsa, ona insonning eng qimmatli yaqinidir. Qaysi millat vakili bo'lishidan qat'i nazar, ona farzandlarini cheksiz mehr bilan sevadi.

3. Ayol – oila, qo‘rg‘on tayanchi. Ayol xonadon qo‘riqchisi bo‘lib, oilada ayolning roli juda katta. Erkakni qo‘llab-quvvatlab, doimiy motivatsiya beruvchi. Farzandlar tarbiyasi-yu ro‘zg‘or yumushlari ayol zimmasida.

4. Ayol – sevimli yor. Insoniyat yaralibdiki, uning hayoti muhabbat bilan to‘liqdir. Badiiy adabiyotning yetakchi mavzusi ham ayolga muhabbat, ayol tavsifidir.

5. Ayol – jamiyatning faol a‘zosi. Bu tushuncha azaldan mavjud bo‘lib, o‘zbek xalqi tarixida To‘marisdan tortib Bibixonim, Gavharshodbegim, Nodira-yu Anbar Otinlarning hayoti va faoliyati bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

O‘zbek tilida “**ayol**” konseptosferasidagi leksik-semantik birliklar sifatida quyidagilarni belgilashimiz mumkin: *ona, buvi, opa, singil, qiz, nabira, yor, ma’shuqa, zavja, kelin, qaynona, qayinegachi, qayinsingil, quda, quda xola, quda buvi, qo‘shni, ustoz, olima, raqqosa, beka, hamshira, shifokor, o‘qituvchi, chevar, sarishta, mehnatkash, iboli, xayoli...* Bu qatorni cheksiz davom ettirish mumkin.

“Ayol” konseptosferasida “go‘zallik” tushunchasi ham zohiriy, ham botiniy ma’noda yetakchi belgilardan biri hisoblanadi. Hadislarda “Alloh sizning suratlaringiz va amallaringizga emas, balki qalblaringizga va niyatlaringizga boqar”, – deyilgan¹⁹.

Oydin Hojiyevaning “Tamaraga” she’rida ana shu “*bo‘y yetgan qiz*” tushunchasini ifodalovchi tuyg‘ular o‘zining poetik verballashuvini aks ettiradi:

O‘rikli soy chashmalariday

Xayolingda mildiraydi sir.

Ovozingda shivirlaydi nay,

Nigohingda pokiza ta’bir (O.Hojiyeva, Tamaraga).

Matnni lingvokognitiv tahlil qilish uning konseptual strukturasi tahlilidir. Matn konsepsiyasini tahlil qilishda alohida e’tibor ma’lum bir so‘z bilan bog‘langan tuzilmalar matnli leksik-grammatik guruhlarni talab qiladi, konsept nomi subyektiv “ma’noni zichlashtirish” markazi sifatida o‘z atrofida shaxs tezaurusidagi ayrim “tugun”lar va unga mos ravishda olamning individual tasviri parchasining tiklanishiga imkon beradi.

